



## **XALQ DEPUTATLARI QAMASHI TUMAN KENGASHI QARORI**

---



---

2022 - yil 22 - sentabr

VI-54-112-4-58-K/22

Qamashi tuman hokimligi

### **Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish, g'olib deb topish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasida”gi mablag‘larni mazkur tadbirlarga yo‘naltirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Budjet ma’lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 24-avgustdagи PQ-3917-son qarori, “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 13-apreldagi PQ-5072-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-son va 2022-yil 30-iyundagi KQ-377-IV-son qarorlarini inobatga olib O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari Qamashi tuman Kengashi

#### **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 13-apreldagi PQ-5072-son qaroriga asosan Qamashi tumanida 2022 yil 15-iyulidan 17-sentyabriga qadar tashabbusli budjet jarayoni o‘tkazilganligi qayd etilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining “Ochiq budjet” axborot portalı orqali “Tashabbusli budjet” jarayonida fuqarolar tomonidan o‘z hududidagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha qoldirilgan takliflarning 3-bosqich, ya’ni “ovoz berish” jarayoni yakunida aniqlangan “g‘olib” takliflar ro‘yxati hamda

undagi shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish tasdiqlangan manzilli ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Raximov) manfatdor tuman tashkilotlari bilan birgalikda:

10811 ta ovoz bilan g‘olib bo‘lgan Oqrabod MFY Oqrabod qishlog‘i yo‘lini asfalt qilish;

10415 ta ovoz bilan g‘olib bo‘lgan Savsanqepa MFY Savsan qishlog‘i Mang‘itovil qabristoniga borish yo‘lini asfalt qilish;

8702 ta ovoz bilan g‘olib bo‘lgan Nurliyo‘l MFY Yashnobod ko‘chasini asfalt qilish;

7488 ta ovoz bilan g‘olib bo‘lgan Qizilqishloq MFY Oqqishloq qishlog‘i bilan Qorako‘z qishlog‘i oralig‘idagi tuproq yo‘lni shag‘al qoplamali yo‘lga aylantirish;

7371 ta ovoz bilan g‘olib bo‘lgan Badaxshon MFY Badaxshon ko‘chasi yo‘lini asfalt qilish bilan bog‘liq xarajatlar ilovaga asosan tuman obodonlashtirish boshqarmasiga o‘tkazib berishni va maqsadli ishlatalishini nazorat qilsin.

4. Qamashi tuman hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (Rasulov) tuman hokimligi moliya bo‘limi (Pardayev) bilan birgalikda 3-bosqich, ya’ni “ovozi berish” jarayoni yakunida aniqlangan “g‘olib” takliflar, shuningdek, undagi shakllangan tadbirlarni moliyalashtirilishi hamda amalga oshirilishini keng jamoatchilikka muntazam ravishda yetkazib borishni tashkil etsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Raximov) hamda xalq deputatlari Qamashi tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Norqulov) zimmasiga yuklansin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



B.Tog‘ayev

Xalq deputatlari Qamashi tuman Kengashining  
2022 yil 22 sentabrdagi  
VI-54-112-4-58-K/22-son qaroriga  
1-ilova

**Qamashi tumani bo'yicha 2022 yil iyul-avgust oylarida jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha  
MANZILLI RO'YXAT**

*ming so'mda*

№	G'olib taklif ma'lumotlari			Amalga oshirishning aniqlangan qiymati	Xaqiqatda ajratilgan	Moliyalashtirish manbasi (FTJ, qo'shimcha manba, byudjet parametri)	Buyurtmachi tashkilot
	Taklif ID raqami	Qisqacha mazmuni	To'plangan ovozlar soni				
<b>"Fuqorolar tashabbusi jamg'armasi" da shakllangan mablag'</b>				<b>6 312 000</b>			
1	0580600020	Oqrabod MFY Oqrabod qishlog'i yo'lini asfalt qilish	10 811	1 200 000	1 200 000	Fuqorolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
2	0580600397	Savsanstepe MFY Savsan qishlog'i Mang'itovul qabriston yo'lini asfalt qilish	10 415	1 200 000	1 200 000	Fuqorolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
3	0580600281	Nurliyo'l MFY Yashnaobod ko'chasini asfalt qilish	8 702	1 000 000	1 000 000	Fuqorolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
4	0580600027	Qizil qishloq MFY Oq qishloq qishlog'i bilan Qora ko'z qishlog'ini tutashtiruvchi tuproq yulni shag'allashtirish	7 488	1 000 000	1 000 000	Fuqorolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
5	0580600016	Badahshon MFY Badahshon qishlog'idagi asosiy badaxshon yo'lining qolgan qismini asfalt qilish	7 371	1 200 000	1 200 000	Fuqorolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
<b>Jami ajratilgan mablag'</b>			x	x	<b>5 600 000</b>	x	x
<b>Taqsimlanmagan mablag'</b>				<b>712 000</b>	x	x	